



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



**O'RTA OSIYONING ANTIK DAVR MODDIY MADANIYATI****Saidalimova Muzayyana Baxtiyorjon qizi**

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ergashboyeva Xadichaikubro Ikromjon qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi

O'rta Osiyo miloddan avvalgi IV asrning boshigacha ahamoniylar tarkibida kirgan va bir necha satraplikdan iborat bo'lgan. Miloddan avvalgi 327- yil Sirdaryoning o'rta oqimigacha cho'zilgan yerlar yunonlar tomonidan bosib olingan. Aleksandr Makedonskiy vafotidan so'ng bu yerlar miloddan avvalgi IV asrlar oxirida Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi. Miloddan avvalgi III asrning boshida Yaksar (Sirdaryo) orti hududida, ya'niy Toshkent vohasi ham salavkilar davlati tasarrufiga o'tadi. Miloddan avvalgi II asrga kelib, O'rta Osiyo hududlarida yunon-makedon hukmronligi zaiflay boshlaydi va mahalliy kuchlar – Qang' davlati, Yunon-Baqtriya podsholigi hamda keyinchalik Kushonlar imperiyasi shakllanadi. Bu davrda turli siyosiy o'zgarishlarga qaramay, mintaqaning iqtisodiy hayoti, shahar madaniyati va hunarmandchilik markazlari rivojda bo'lgan. Ahamoniylar, Salavkiylar va Yunon-Baqtriya hukmronligi davrida O'rta Osiyoda moddiy madaniyat yuksak bosqichga ko'tarilgan. Ayniqsa, Sug'd, Baqtriya va Xorazm hududlarida shaharsozlik, mudofaa devorlari, qal'alar va hokim saroylari qurilishi me'morchiligi rivojlandi. Sug'orish tizimlari kengaytirilib, dehqonchilik rivojlandi. Hunarmandchilik – kulolchilik, metallga ishlov berish, zargarlik, to'qimachilik ancha taraqqiy etdi. Savdo yo'llari, ayniqsa "Buyuk Ipak yo'li"ning ilk shakllanishi moddiy madaniyatga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu jarayonlar O'rta Osiyo xalqlarining nafaqat iqtisodiy hayotini, balki san'at, me'morchilik, turmush tarzi va buyumlar yaratilishida o'ziga xos madaniy qatlam shakllanishiga sabab bo'ldi. Ana shu tarixiy o'zgarishlar moddiy madaniyat yodgorliklarida o'z aksini topgan. Aynan shundan so'ng, antik davr O'rta Osiyosining moddiy madaniyatiga xos asosiy xususiyatlar shakllana boshlaydi. Bu davr siyosiy o'zgarishlari O'rta Osiyoning moddiy madaniyatida ham chuqur iz qoldirdi. Ayniqsa ellinistik davr ta'siri ostida shaharsozlik, hunarmandchilik va me'morchilik jadal rivojlandi. Janubiy o'lkalarida barpo etilgan antik shaharlar ellin qurilish uslubida bunyod etilib, ular keng ko'chalar, mustahkam mudofaa devorlari, minoralar, ibodatxonalar va hokimlar saroylari bilan ajralib turgan. Ellin qurilishi avvalo Shimoliy Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya va So'g'd shaharlarida kuchli namoyon bo'ldi. Keyinchalik bu qurilish an'analari butun Sharqiy O'rta Osiyoga tarqalib, mahalliy me'moriy maktab bilan sintezlashdi. O'troq dehqonchilik vohalariga chorvador qabilalarning kirib kelishi, savdo yo'llarining rivojlanishi va Kushonlar davrida hind, ellin hamda mahalliy madaniyat aralashuvi natijasida





o'ziga xos moddiy meros shakllandi. Ayniqsa Baqtriya hududida bu sintez san'at, haykaltaroshlik va ibodatxonalar qurilishida yaqqol seziladi.

Bugungi kunda O'rta Osiyo hududida antik davrga oid bo'lgan minglab tarixiy maskanlar mavjud. Jumladan O'zbekiston bunday tarixiy obyektlarga boyligi bilan butun dunyo olimlariyu sayyohlarini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Samarqand shahridagi qadimiy Afrosiyob shahri qoldiqlari, Termizdagi Zurmala (mil.av 2-asr), Ayritom (milodiy 1-4 asr), Denovdagi Xolchayon (mil.av 4-asr), Sho'rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepa yodgorligi, Sherobod tumanidan topilgan.

Ellin davrida O'rta Osiyodan Hindiston, Eron, Xitoy va Kavkazga qarab savdo kengaygan. Savdo natijasida yangi hunarmandchilik usullari, metall ishlash, keramika, zargarlik, san'atlari rivojlandi. Ko'chmanchi (sak, massaget, yuechji) qabilalar o'troq dehqon hududlariga kirib kelib, ularning madaniyatiga harbiy me'morchilik, temir qurollar, otga oid buyumlar va bezak san'ati elementlarini olib keldi. Bu esa moddiy madaniyatning yangi shakllarini yaratdi.

Antik davr insoniyat tarixida moddiy madaniyatning jadal rivojlangan davrlaridan biridir. Bu davr madaniyatini o'rganishda asosiy vazifa — moddiy yodgorliklar, arxeologik topilmalar, me'moriy obidalar, epigrafik va numizmatik manbalarni ilmiy tahlil qilish orqali o'tmish jamiyatlar hayotini qayta tiklashdir. Arxeologiya antik davr moddiy madaniyatini o'rganishda eng asosiy manba hisoblanadi. Chunki bu manbalar bevosita o'tmishda yaratilgan buyumlar, uy-joy qoldiqlari, mozorlar, me'moriy inshootlar, xo'jalik qurollari, hunarmandchilik buyumlari kabi moddiy darakchilarga tayangan holda o'tmish tasvirini tiklashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, antik davr moddiy madaniyatining rivojlanishi, uning manbalari va Markaziy Osiyo hududidagi o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Ellin davrida savdoning kengayishi, hunarmandchilikning rivojlanishi, ko'chmanchi qabilalarning o'troq hududlarga ta'siri kabi omillar moddiy madaniyatning yangi shakllarini yaratishga olib keldi. Arxeologik manbalar, me'moriy yodgorliklar, mozor-qo'rg'onlar, numizmatik manbalar va san'at asarlari antik davrni o'rganishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston hududidagi Qanqa, Afrosiyob va Xorazm kabi yodgorliklar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining antik davr moddiy madaniyatini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Ushbu manbalarning kompleks o'rganilishi antik jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini to'liq tiklash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ibragimov R. Arxeologiya. – Toshkent, 2022.
2. Ibragimov R. O'rta Osiyo arxeologiyasi.-Toshkent, 2020.
3. Bozorov A. Qadimgi O'rta Osiyo shahar va davlatlarining dunyo madaniyati va san'ati rivojiga qoshgan hissasi. Ayritom tarixiy yodgorligi talqinida. O'zbekiston madaniy meros yodgorliklari turkumidan. Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <https://oac.dsmi-qf.uz>. Volume 5 Issue 1 / February 2024
4. Sultonova H. O'rta Osiyoda antik davr davlatlari va ularning ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayoti. Академические исследования в современной науке, 4(32), 147–153.

